




## FAKTORING - KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MUQOBIL ASOSI

Jusupova Anjim Tansiqbaevna

Nukus innovatsion institute "Moliya" kafedrasida assistenti

Email: [Jusupova.72.72@gmail.com](mailto:Jusupova.72.72@gmail.com)

| ARTICLE INFORMATION                                                                                                                                             | ABSTRACT                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Volume: 1</b><br><b>Issue: 11</b><br><b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss11/a10">https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss11/a10</a> | <p>Maqolada kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy resurslarini shakllantirishda yuzaga keladigan muammolar ilmiy nazariy muhokama qilingan va ularning mavjud bo'lgan yechimi sifatida faktoringning o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, faktoringning turlari va nazariy asoslari tadqiq etilgan.</p> <p><i>kichik biznes, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik, faktoring, moliyaviy resurslar.</i></p> |
| <b>KEYWORDS</b>                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |

### Kirish(Introduction/Введение)

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznes iqtisodiyotda juda muhim o'rin tutadi, ularning rivojlanishi iqtisodiy o'sishga, fan-texnika taraqqiyotining tezlashishiga, bozorni talab qilinadigan sifatidagi tovarlar bilan to'ldirishga, shuningdek, iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir qiladi, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratadi. Tadbirkorlik - ijtimoiy munosabatlar namoyon bo'lishining o'ziga xos shakllaridan biri sifatida nafaqat jamiyatning moddiy va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga yordam beradi, balki har bir shaxsning qobiliyat va iste'dodini amalda ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi[1,2].

Keyingi yillarda iqtisodiy o'sishning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri kichik biznesni rivojlantirishdir. Bozor munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichida turgan O'zbekiston uchun kichik biznesni rivojlantirish jamiyatni ijtimoiy qayta qurish, aholini tayyorlash va butun mamlakat iqtisodiyotini bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlash uchun asos bo'lishi kerak[3].

Kichik va o'rta korxonalar o'z tadbirkorlik faoliyatlarida ko'plab muammolarga duch kelishadi. Bular odatda tadbirkorlik qobiliyatining yetishmovchiligida va cheklangan kapital bilan bog'liq. Kredit boshqaruvi sohasidagi zaifliklar va sust marketing ishlari, ishlamaydigan kreditlar sonining ko'payishiga olib keladi.

Tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslarning cheklanganligi eng muhim muammolardan bo'lganligi sababli 2024-yili 20 avgust kuni Nukus shahrida O'zbekiston prezidentining tadbirkorlar bilan muloqoti davomida, Prezident Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlik uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish bo'yicha muhim yangi beshta tashabbuslarning eng birinchi yo'nalish qilib kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirishni belgilab berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha tadbirkordan garov talab qilmaydigan eng qulay instrument bu – faktoring. Xalqaro moliya korporatsiyasiga ko'ra, bizda 10 milliard dollarlik faktoring xizmatiga talab bor. Hozir bu xizmatni faqat banklar, mikromoliya tashkilotlari ko'rsatayapti. Bundan buyon bank bo'lmagan yangi institut – faktoring tashkiloti uchun yo'l ochiladi. Ular xorijiy valyutada ham xizmat ko'rsatishi mumkin bo'ladi [4].

### Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы / Literature review).

Faktoring kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim moliyaviy vosita sifatida e'tirof etilgan. Ushbu sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar, faktoringning ahamiyati va uning kichik biznesga ta'siri haqida keng qamrovli ma'lumotlar taqdim etadi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab faktoring masalalari bilan shug'ullangan olimlar, jumladan, [5,6] faktoringning iqtisodiy samaradorligini o'rganish orqali, kichik biznes uchun bu mexanizmning afzalliklarini ochib berishgan. Ular, faktoring yordamida naqd pul oqimini tezlashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, [7-8] faktoring tizimining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va uning kichik va o'rta biznesni rivojlantirishdagi roli haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ular, faktoring mexanizmining mavjud imkoniyatlari va qiyinchiliklarini tahlil qilib, bu xizmatdan qanday qilib maksimal foyda olish mumkinligini yoritganlar.

Umuman olganda, faktoring — kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib, uni o'rganish sohasidagi izlanishlar bu mexanizmning qanchalik samarali ekanligini namoyish etadi. Kichik biznes egalari faktoringdan qanday foydalanishlari, ularning muvaffaqiyatli rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi[9-11].

Tadqiqot maqsadi. Hozirda O'zbekiston bozori tovarlarni kreditga sotishni talab qilmoqda va kredit xizmatlarini ko'rsatuvchi moliyaviy tashkilotlar kreditga bo'lgan barcha talabni qondira olmaydi. Shuning uchun ushbu tadqiqot ishining maqsadi faktoring xizmatlarining mohiyatini ochib berish va ularning bank xizmatlaridan farqini aniqlashdan iborat.

### Tadqiqot metodologiyasi (Методология/Methodology).

Mazkur ilmiy tadqiqotda moliyaviy xizmat ko'rsatish turi bo'lgan faktoring tushunchasi mohiyatini ochib berish va uning O'zbekiston Respublikasida rivojlanish istiqbollari ilmiy nazariy ko'rib chiqish yuzasidan ilmiy munozara, iqtisodiy statistik va qiyosiy tahlil hamda abstraksiya kabi usullardan foydalanildi.

Ushbu tadqiqotda faktoringning kichik biznes va tadbirkorlik rivojiga ta'sirini o'rganish uchun bir qator ilmiy va statistik usullar qo'llanildi:

1. Nazariy tahlil: Faktoringning nazariy asoslarini o'rganish, uning rivojlanish tarixini va amaliy qo'llanilishini tahlil qilish orqali ma'lumotlar to'plandi.
2. Anketa o'tkazish: Kichik biznes egalari va tadbirkorlardan faktoring xizmatlaridan foydalanish tajribalarini o'rganish maqsadida anketalar tarqatildi. Bu usul yordamida ularning fikr va mulohazalari yig'ildi.
3. Statistik guruhlash: Olingan ma'lumotlar turli parametrlar bo'yicha guruhlanib, faktoringdan foydalanuvchi korxonalar orasida taqqoslanishi amalga oshirildi.

4. Tanlanma kuzatish: Muayyan kichik biznes subyektlarini tanlab, ularning faktoringdan foydalanish jarayonini va natijalarini kuzatish orqali amaliy ma'lumotlar yig'ildi.

5. Iqtisodiy indekslar: Faktoringdan foydalanish natijasida o'zgarayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlar, masalan, naqd pul oqimi va rentabellik darajasi indeksleri tahlil qilindi.

6. Dinamika qatorlari: Vaqt davomida faktoringning ta'siri va kichik biznesning rivojlanish dinamikasi o'rganildi, bu esa uzluksiz o'zgarishlarni ko'rsatdi.

7. Korrelatsion-regression tahlil: Faktoring va kichik biznesning moliyaviy ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida korrelatsion-regression tahlil usuli qo'llanildi.

Ushbu usullar birgalikda tadqiqotning maqsadini — faktoringning kichik biznes va tadbirkorlik rivojiga qo'shgan hissasini chuqur o'rganish va baholashga yordam beradi.

#### Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results)

Mamlakatni rivojlantirish dasturlariga muvofiq innovatsiyalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish vektorlaridan biri hisoblanadi va kichik biznes bu mamlakat aholisining ijodkor qismining qobiliyatlarini nomoyon qila oladigan sohalaridan biridir. Shu bilan birga, kichik va rivojlanayotgan biznes uchun eng muhim vazifalardan biri bu o'z vaqtida rivojlanish uchun kerak bo'lgan resurslarni moliyalashtirish. Aylanma mablag'lar bilan ta'minlash va barqaror moliyaviy holatni saqlash ayniqsa rivojlanayotgan innovatsion korxonalar uchun keskin muammo hisoblanadi. An'anaviy kreditlash har doim ham bu muammoni hal qilmaydi. Tezda kredit mahsulotlarini olish odatda ancha qimmat. Foydali foiz stavkalari uchun esa etarli garov mulki talab etiladi bog'liq. Bu esa hamma kichik korxonalarda ham mavjud emas, yangi boshlanuvchilarda esa deyarli yo'q.

Muammoni hal qilish imkonini beruvchi vositalardan biri yuqorida ko'rsatilgan shartlar bo'yicha pul mablag'larini tezkor qabul qilish imkonini beruvchi faktoring sxemasidir.

Shu boisdan, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning ko'char aktivlarga asoslangan instrumentlarini rivojlantirish orqali kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyati uzluksizligini ta'minlash imkoniyatlarini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 12.08.2024 yildagi PF-109-son farmoni imzolandi [12].

Unga ko'ra Markaziy bankning pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) faoliyatini amalga oshiruvchi faktoring tashkilotlarini tashkil qilish to'g'risidagi taklifga rozilik berildi va faktoring tashkiloti faoliyati nobank kredit tashkiloti sifatida reyestrغا kiritish vositasida Markaziy bankda hisob ro'yxatidan o'tgandan keyin amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

Faktoring savdo kreditlashning eng qadimgi shakllaridan biridir. Uning individual xususiyatlarini Rim imperiyasida ham, qirol Hammurapi davrida ham, eramizdan avvalgi 4000 yilda, savdogarlar undan o'z faoliyatida foydalanganlarini topish mumkin.

Faktor so'zi lotincha facio fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, so'zma-so'z «bajaruvchi» degan ma'noni anglatadi.

Faktoring 14-asrda Angliyada faol rivojlana boshladi, bu esa to'qimachilik sanoatining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq edi.

19-asr oxirida AQShda ko'p sonli faktoring kompaniyalari paydo bo'la boshladi. Ular nemis va ingliz kiyim-kechak va to'qimachilik yetkazib beruvchilarining «del credere» agentlari bo'lgan va Amerikadagi aholi punktlari orasidagi masofa kattaligi va turli shtatlarning qonunlaridagi farqlar tufayli ular mahalliy ishlab chiqaruvchilarga xizmat ko'rsatishgan. Delcredere barcha tovarlar uchun to'lovni kafolatlaydi. To'lamaslik xavfini qoplash uchun ular qo'shimcha komissiya undirdilar. Faktoring kompaniyalarining o'sishi bilan yuqoridagi xizmatlarga mahsulot yetkazib beruvchini moliyalashtirish funksiyasi qo'shildi.

Taxminan 1980-yillarning o'rtalaridan boshlab faktoring sanoati jahon iqtisodiyotining moliyaviy sektorida eng tez o'sish sur'atlarini boshdan kechirdi.

20-asrning o'rtalaridan boshlab xalqaro faktoring rivojlana boshladi. 1960 yilda birinchi faktoring assotsiatsiyasi - Xalqaro Faktorlar Guruhi (IFG) paydo bo'ldi, u bugungi kunda 41 mamlakatning 60 dan ortiq kompaniyalarini birlashtiradi. Uyushma doirasida faktoring kompaniyalari o'rtasida ma'lumot uzatishning elektron tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u butun dunyo bo'ylab qarzdorlarning kreditga

layoqatligini juda tez baholash, kredit limitlarini belgilash, yetkazib berish holati va xaridorlarning to'lov intizomini nazorat qilish uchun foydalaniladi.

Bugungi kunda xalqaro faktoring ta'rifini o'z ichiga olgan asosiy hujjat xalqaro faktoring to'g'risidagi UNIDROIT konventsiyasidir. 2002 yil 31 yanvarda BMT Bosh Assambleyasi xalqaro savdoda debitorlik qarzarlarini taqsimlashni tartibga solish bo'yicha 56/81-sonli rezolyutsiyani qabul qildi. Xalqaro faktoring doirasidagi faoliyat, shuningdek, FCI va IFG a'zolari tomonidan qabul qilingan «Xalqaro faktoring faoliyati qoidalari» (GRIF - Xalqaro faktoring uchun umumiy qoidalar) bilan tartibga solinadi [13].

Faktoring va bank krediti o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rib chiqish mumkin. Birinchidan, faktoringdan foydalanish majburiy garov talabining yo'qligini anglatadi, bu esa bu xizmat turiga qiziqishni sezilarli darajada oshiradi. Ikkinchidan, bank kreditidan farqli o'laroq, faktoringda mijoz uchun katta vaqt va moliyaviy yo'qotishlarsiz moliyalashtirish hajmini oshirish mumkin. Uchinchidan, faktoring yomon kredit tarixi tufayli kredit olishi mumkin bo'lmagan kichik va o'rta korxonalar uchun optimal variant hisoblanadi [14]. Bizning fikrimizcha, ushbu respublikaning yirik sanoat tarmoqlari: savdo va umumiy ovqatlanish, transport va aloqa, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish, moliya va boshqa sohalarini rivojlantirishda muhim dastak bo'ladi" [15].

Quyidagi jadvalda faktoring va kreditdan foydalanishning ayrim jihatlarni solishtiramiz.

1-jadval

| Bank krediti va faktoringning qiyosiy tahlili                                                                    |                                                                                                      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Bank krediti                                                                                                     | Faktoring                                                                                            |
| ➤ Kredit qarz oluvchi bankiga qaytariladi.                                                                       | ➤ Faktoring esa mijozning qarzdorlaridan olingan puldan qaytariladi.                                 |
| ➤ Kredit shartnomada ko'rsatilgan kunda to'lanadi.                                                               | ➤ Faktoring tovarni etkazib berish kunida to'lanadi.                                                 |
| ➤ Kredit garov ta'minoti asosida beriladi va joriy hisob bo'yicha qarz summasiga muqobil aylanmani talab qiladi. | ➤ Faktoring uchun garov talab qilinmaydi.                                                            |
| ➤ Kredit oldindan belgilangan miqdorga beriladi.                                                                 | ➤ Faktoringning miqdori cheklanmagan va mijozlar savdosi hajmi oshgani sayin cheksiz o'tishi mumkin. |

Faktoring operatsiyalari har doim uchta tomonni o'z ichiga oladi: xaridor, faktor (bank yoki faktoring xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniya) va yetkazib beruvchi. Jarayonni quyidagicha ko'rsatish mumkin (1-rasm).



1-Rasm. Kichik va o'rta biznes uchun faktoring xizmatini ko'rsatish sxemasi.

1-Rasmdan ko'rishimiz mumkinki, yetkazib beruvchi o'z mablag'larini tezda olishi va ularni to'plashi mumkin, shuningdek vositachiga foizlarni olish huquqini beradi. Bu etkazib beruvchining ishini sezilarli darajada osonlashtiradi, chunki pulni tezda olish orqali u mablag'lar aylanishini tezlashtirishi mumkin.

Faktor, vositachi kompaniya, olgan komissiyasi evaziga summaning o'z vaqtida va to'liq to'lanishi ustidan nazoratni o'z zimmasiga oladi.

#### Xulosa (Заключение, Conclusion).

Shunday qilib, bizning fikrimizcha faktoring aylanma mablag'larni tez ko'paytirish va kompaniya barqarorligini oshirish uchun qulay

vositadir. Ushbu mexanizmni ishlab chiqish rentabellik darajasi past bo'lgan, hozirgi sharoitda aylanma kreditlashdan foydalanish qiyin bo'lgan tarmoqlar uchun alohida ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Demak faktoring kompaniyalarini jalb qilish biznes uchun qo'shimcha foyda bo'ladi. Chunki u moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositasi, mijozlarning

to'lov muddatini buzish xavfini minimallashtiradi va kichik va o'rta korxonalarning davlat xaridlari tizimida ishtirok etish motivatsiyasini oshiradi.

#### References:

1. Khamdamov, S. J. R., Usmanov, A. S., Sayfullayev, S. N., Xamitova, M. S., & Adkhamjonov, S. B. (2024). The Influence of the Main Rate of the Central Bank on GDP Growth in Uzbekistan and the Transition to International Financial Reporting. In *Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS* (Vol. 33, pp. 107-112). Emerald Publishing Limited.
2. Saidmakhmudovich, U. A., Khamdamov, S. J., & Eshonovich, S. A. (2023). PROBLEMS OF ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS IN UZBEKISTAN. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 16, 106-110.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy web-sayti [www.president.uz](http://www.president.uz)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 12.08.2024-yilgi PF-109-son farmoni
5. Kuvshinova Yu.A. Etapi razvitiya faktoringa: istoriya i sovremennost // *Finansi i kredit*. 2004. №30 (168). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/etapi-razvitiya-faktoringa-istoriya-i-sovremennost>
6. Korposh Yelena Mixaylovna, Chernenskiy Dmitriy Ivanovich Faktoring: kak instrument razvitiya biznesa // *Ekonomika i sovremenniy menedjment: teoriya i praktika*. 2015. №12 (54). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/faktoring-kak-instrument-razvitiya-biznesa>
7. Musagaliev A.J., et all. General Analysis of Services in the Economic Development of Regions in Uzbekistan / *Asian Journal of Advances in Research*. Volume 17. Issue 4. 2022. - Pages: 221-226.
8. Khamdamov, S. J. (2024). THE IMPACT OF CENTRAL BANK POLICIES AND DIGITALIZATION ON GDP GROWTH IN UZBEKISTAN. *Страховой рынок Узбекистана*, 1(6), 7-10.
9. Маширова Т. Н. Сабенова Б. Н., Сихымбекова А. М Основные направления развития малого и среднего бизнеса: Зарубежный опыт. // *Ж. Экономика и финансы*. №3. 2012. – С. 31.
10. Ro'ziyeva D. I. Kichik biznesni xalqaro kreditlar hisobidan investitsiyalash // «Iqtisod va moliya» jurnali, 2013 yil №6.
11. Eshov M. P. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollari. Monografiya.T, 2017. 80 b.;
12. Gofurov U. V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dis. Avt. ref. iqt.fan. doktori T.: 2017. 30 b.
13. Абдурахмонова Г. К. Малый бизнес в обеспечении занятости населения в Узбекистане. Вестник Российского экономического университета им. Г. В. Плеханова. 2014, №12. – С. 129–136.
14. Mamadiyrov, Z., Sultanova, N., Makhmudov, S., Khamdamov, S. J., Mirpulatova, L., & Jumayev, A. (2023, December). The Impact of Digitalization on Microfinance Services in Uzbekistan. In *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems* (pp. 453-463).
15. Khamdamov, S. J., Kakhramonova, U., & Usmanov, A. (2024). GREEN ECONOMY AS A DRIVER OF SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN. *Страховой рынок Узбекистана*, 1(8), 64-66.